4-SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA YAPON TARBIYA YONDASHUVI VOSITASIDA JAMOAVIY HAMKORLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Abdupattoyeva Barhayo Nozimjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti magistranti
Djakbarova Mahliyo Ibraximjanovna
Ilmiy maslahatchi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23320143

Annotatsiya. Ushbu maqolada 4-sinf o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda yapon tarbiya yondashuvidan foydalanishning ilmiy-metodik imkoniyatlari yoritiladi. Yapon ta’lim tajribasida hamkorlik, o‘zaro hurmat, mas’uliyat, sinf jamoasiga daxldorlik va amaliy faoliyat orqali ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga e’tibor qaratiladi. Maqolada ushbu g‘oyalarni o‘qish savodxonligi mazmuni bilan uyg‘unlashtirishning metodik shartlari, guruhli topshiriqlarni tashkil etish bosqichlari, o‘quvchilar rollarini taqsimlash, matn ustida hamkorlikda ishlash, o‘zaro baholash va refleksiya usullari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, 4-sinf, o‘qish savodxonligi, yapon tarbiya yondashuvi, jamoaviy hamkorlik, hamkorlikda o‘qitish, guruhli ish, o‘zaro yordam, mas’uliyat, refleksiya, matnni tushunish.

Аннотация: В статье рассматриваются научно-методические возможности применения японского образовательного подхода для формирования навыков сотрудничества у учащихся 4-классов на уроках, направленных на развитие читательской грамотности. Японская образовательная практика делает акцент на развитии социальных навыков посредством сотрудничества, взаимного уважения, ответственности, чувства принадлежности к коллективу класса и практического взаимодействия. В статье представлены методические условия интеграции этих принципов в процесс обучения чтению, а также стратегии организации групповых заданий, распределения ролей между учащимися, совместной работы с текстом, взаимного оценивания и рефлексии.

Ключевые слова: начальное образование, 4-класс, читательская грамотность, японский образовательный подход, командная работа, совместное обучение, групповая работа, взаимопомощь, ответственность, рефлексия, понимание текста.

Abstract. This article examines methodological opportunities for developing fourth-grade pupils’ collaborative skills in reading literacy lessons through selected principles of the Japanese approach to education and character formation. The Japanese educational experience emphasizes cooperation, mutual respect, responsibility, participation in classroom community life, and learning through practical activities. The article proposes methods for integrating these principles with reading literacy tasks, including group work, role distribution, collaborative text analysis, peer assessment and reflection. Criteria for assessing collaborative skills and a model of a reading literacy lesson are also presented.

Keywords: primary education, fourth grade, reading literacy, Japanese educational approach, collaboration, teamwork, group work, responsibility, reading comprehension, reflection.

Bugungi ta’lim jarayonida o‘quvchining faqat bilimlarni egallashi emas, balki ularni muloqot, hamkorlik, muammoli vaziyatlarni hal qilish va mustaqil fikrlash jarayonida qo‘llay olishi muhim hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida shakllantiriladigan ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalar bolaning keyingi ta’lim faoliyati uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. 4-sinf o‘quvchisi matnni mustaqil o‘qish, mazmunini anglash, savollarga javob berish, asosiy fikrni aniqlash, xulosa chiqarish va o‘z fikrini asoslash bilan birga, tengdoshlari bilan fikr almashishga ham tayyor bo‘lishi lozim. O‘qish savodxonligi darslari bunday ko‘nikmalarni birgalikda rivojlantirish uchun qulay pedagogik maydon yaratadi. Matn mazmuni yuzasidan savol-javob, qahramonlar xatti-harakatini tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash, voqealar ketma-ketligini tiklash, matnga sarlavha tanlash va dalillarni topish kabi topshiriqlarni juftlik yoki kichik guruhda tashkil etish o‘quvchilarning bir-biridan o‘rganishiga imkon beradi.

Yapon ta’lim tajribasida esa maktab hayoti o‘quvchilarning ijtimoiy mas’uliyati, o‘zaro hurmati va jamoaga daxldorligini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘lanadi. Shu sababli yapon tarbiya yondashuvining hamkorlik, mas’uliyat, o‘zaro yordam va jamoaviy faoliyatga oid tamoyillarini 4-sinf o‘qish savodxonligi darslariga moslashtirish ilmiy-metodik jihatdan dolzarb masalalardan biridir. Bunda xorijiy tajribani to‘liq ko‘chirish emas, balki uning mazmunan mos, pedagogik jihatdan asoslangan elementlarini milliy ta’lim qadriyatlari bilan uyg‘unlashtirish nazarda tutiladi. Yapon ta’lim tajribasining tegishli jihatlari sifatida jamoa a’zosi sifatida mas’uliyatni his qilish, hamkorlikda muammoni hal etish, vazifalarni taqsimlash, o‘zaro yordam, sinfdagi ijobiy munosabatlarni rivojlantirish va faoliyatdan keyingi refleksiyani ajratish mumkin. Shuningdek, boshlang‘ich maktablar uchun tayyorlangan darsliklarda sinfdagi faoliyat o‘quvchilarning o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog‘lanadi. Bu jihat o‘qish savodxonligi darsida o‘quvchilarga faqat tayyor topshiriqni bajaruvchi emas, balki guruh ishini rejalashtiruvchi va natijasini tahlil qiluvchi subyekt sifatida qarash imkonini beradi. Bu orqali o’quvchi yoshlarni hamjihatlikda faoliyat yuritishga hamda sog’lom raqobat qurishlari uchun yetarli sharoit yaratilgan bo’ladi desak mubolag’a bo’lmaydi. Jamoaviy hamkorlik ko‘nikmasi - o‘quvchining umumiy maqsadga erishish uchun tengdoshlari bilan muloqot qilishi, vazifani taqsimlashi, o‘z fikrini aniq ifodalashi, boshqalarning fikrini tinglashi, kelishmovchiliklarni konstruktiv tarzda hal qilishi va umumiy natija uchun mas’uliyatni bo‘lishishi bilan ifodalanadigan kompleks ko‘nikmadir. 4-sinf o‘quvchilarida ushbu ko‘nikma quyidagi tarkibiy qismlar orqali namoyon bo‘ladi:

1) tinglash va tushunish;
2) fikr bildirish;
3) savol berish;
4) vazifani taqsimlash;
5) o‘z zimmasidagi vazifani bajarish;
6) boshqalarga yordam berish;
7) umumiy qarorga kelish;
8) guruh natijasini baholash.

O‘qish savodxonligi darslarida ushbu komponentlarning barchasini bir topshiriqning o‘zida rivojlantirish mumkin. Masalan, guruhga qisqa hikoya beriladi. Bir o‘quvchi matnni ovoz chiqarib o‘qiydi, ikkinchisi asosiy fikrni aniqlaydi, uchinchisi matndan dalillarni topadi,

to‘rtinchisi qahramonning xatti-harakatiga munosabat bildiradi. Yakunda barcha a’zolar javoblarni birlashtirib, umumiy xulosa tayyorlaydi. Bunda har bir o‘quvchining hissasi guruh natijasiga bog‘lanadi. Yapon ta’lim – tarbiyasiga asoslangan holda jamoaviy hamkorlikni quyidagi bosqichlarni bosib o’tish asnosida milliyligimiz ilan uyg’unlashtirib natijaga erisjhish mumkin:

1-bosqich. Motivatsiya va tushuncha hosil qilish:
- jamoa nima va nima uchun kerakligi haqida suhbat o‘tkazish;
- “Yolg‘iz va birga ishlash” mavzusida kichik rolli o‘yin;
- hayotiy misollar (sinf, oila, sport jamoasi) tahlili;
- “Men jamoada nimani qadrlayman?” mini-yozuv mashqi.

2-bosqich. Qoidalarni birgalikda ishlab chiqish:
- “Sinf jamoasi qoidalari”ni o‘quvchilar bilan birga tuzish;
- har bir qoida uchun tushuntirish berish;
- qoidalarni plakatga yozib, sinfga osib qo‘yish
- qoidalarga rioya qilish bo‘yicha kelishuv (mini-shartnoma).
-

3-bosqich. Rollarni taqsimlashni o‘rgatish:
- guruhda rollar (lider, yozuvchi, taqdimotchi, kuzatuvchi) tushuntiriladi;
- har bir o‘quvchi turli rollarni sinab ko‘radi;
- rollar almashinuvi orqali tajriba orttirish;
- “Qaysi rolda o‘zimni qulay his qildim?” refleksiya.

4-bosqich. Kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish:
- 3–5 kishilik kichik guruhlar tuzish;
- oddiy topshiriqlarni guruhda bajarish (rasm, jadval, hikoya);
- vazifani birgalikda rejalashtirish;
- natijani umumiy muhokama qilish.

5-bosqich. Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish:
- “Faol tinglash” mashqlari;
- bir-birining fikrini bo‘lmasdan eshitish;
- “Mening fikrimcha…” shaklida gapirishni o‘rgatish;
- bahs-munozara madaniyatini shakllantirish.

6-bosqich. Muammoli vaziyatlarda hamkorlik:
- guruhga muammoli vazifa berish (masalan, yechim topish;
- har bir o‘quvchining fikrini yig‘ish;
- birgalikda eng yaxshi yechimni tanlash;
- qaror qabul qilish jarayonini tahlil qilish.

7-bosqich. O‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlash:
- kuchli o‘quvchi – yordamchi tizimini joriy qilish;

- “Bir-biriga o‘rgatish” usuli;
- guruh ichida yordam berishni rag‘batlantirish;
- “Bugun kim menga yordam berdi?” refleksiya.

8-bosqich. Jamoaviy loyihalar:
- kichik loyiha (plakat, prezentatsiya, sahna ko‘rinishi) berish;
- vazifalarni guruh ichida taqsimlash;
- birgalikda mahsulot yaratish;
- loyiha natijasini sinf oldida himoya qilish.

9-bosqich. Baholash va o‘zaro baholash:
- guruh ishini mezonlar asosida baholash;
- o‘z-o‘zini baholash varaqalari;
- guruhdoshlarni baholash (hurmat bilan);
- “Nimani yaxshi bajardik, nimani yaxshilash kerak?” tahlil.

10-bosqich. Refleksiya va mustahkamlash:
- jamoaviy ish tajribasini muhokama qilish;
- har bir o‘quvchi o‘z hissasini baholaydi;
- eng yaxshi hamkorlik namunalari rag‘batlantiriladi;
- keyingi faoliyat uchun xulosa va reja tuziladi.

Bu bosqichlarni tizimli qo’llash orqali sinf jamoasini birlashtirish, hamnafas odim otishga, raqobatbardoshlilikka yo’naltirishimiz mumkin bo’ladi.

Xulosa qilib aytamizki, 4-sinf o‘qish savodxonligi darslarida yapon tarbiya yondashuvi asosida jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘quvchilarning o‘qish, fikrlash, muloqot va ijtimoiy kompetensiyalarini birgalikda shakllantirish imkonini beradi. Yondashuvning metodik qiymati jamoaviy faoliyatni darsning tabiiy tarkibiy qismiga aylantirish, har bir o‘quvchining hissasini umumiy natija bilan bog‘lash va refleksiya orqali o‘quvchining o‘z faoliyatini anglashini ta’minlashda namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 23.09.2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim uchun o‘quv dasturlari va metodik tavsiyalar. -Toshkent.
3. Mavlonova R., To‘rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. -Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
4. Xusanova F.Z, Djakbarova M.I. “Yaponiya ta’lim va tarbiya tajribasi.” Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik ko‘rsatma 4-sinf – Namangan.2026

FOYDALANILGAN SAYTLAR

1. Ilmiy.uz
2. Axborotnoma.uz